



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN UYEZDINING IJTIMOYIY HAYOTI

Farxodjonov Farruh Oybek o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Namangan uyezdini aholisining turmush tarzi, xo'jalik faoliyati hamda asosiy mashg'ulotlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida uyezd aholisining ijtimoiy va etnik tarkibida yuz bergan o'zgarishlar yoritilgan. Tadqiqotda imperiya ma'muriyati tomonidan joriy etilgan soliq siyosatining mazmun-mohiyati hamda uning Namangan uyezdini aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan. Mazkur masalalar mintaqada kechgan ijtimoiy jarayonlar va aholi turmushidagi transformatsiyalar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, uyezd, dehqonchilik, chorvachilik, aholi, o'troq aholi, o'chmanchi aholi, Namangan, Chust, hunarmandchilik, Farg'ona.

СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ НАМАНГАНСКОГО УЕЗДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Фарходжонов Фаррух Ойбек угли

Наманганский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников проанализированы образ жизни населения Наманганского уезда, его хозяйственная деятельность и основные занятия. Также освещены изменения, произошедшие в социальном и этническом составе населения уезда в период господства Российской империи. В исследовании раскрываются сущность налоговой политики, проводимой имперской администрацией, а также её влияние на социально-экономическую жизнь населения Наманганского уезда. Рассматриваемые вопросы анализируются в тесной взаимосвязи с социальными процессами и трансформациями в образе жизни населения региона.

Ключевые слова: Российская империя, уезд, земледелие, животноводство, население, оседлое население, кочевое население, Наманган, Чуст, ремесленничество, Фергана.

SOCIAL LIFE OF NAMANGAN UYEZD IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Farxodjonov Farruh Oybek o'g'li

Namangan State Pedagogical Institute, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the lifestyle, economic activities, and principal occupations of the population of Namangan Uyezd on the basis of historical sources. It also examines the changes that occurred in the social and ethnic composition of the uyezd's population during the period of Russian imperial rule. The study reveals the essence of the tax policy introduced by the imperial administration and its impact on the socio-economic life of the population of Namangan Uyezd. These issues are analyzed in close connection with the social processes and transformations in the living conditions of the local population that took place in the region.

Keywords: Russian Empire, uyezd, agriculture, animal husbandry, population, sedentary population, nomadic population, Namangan, Chust, handicrafts, Fergana.

Namangan uyezdini Farg'ona viloyatining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, uning muhim ma'muriy-hududiy birliklaridan biri hisoblangan. Namangan uyezdining aholisi imperiya mustamlakachilik siyosati davrida siyosiy-ma'muriy boshqaruv, sud-huquq tizimi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar fonida sezilarli darajada ijtimoiy o'zgarishlarga duch kelgan. Farg'ona vodiysi xalqi azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Ular rus hokimiyati o'rnatilgandan so'ng ham Namangan uyezdini aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lib qolavergan.

Turkiston o'lkasi azaldan ko'pmillatli o'lkalardan hisoblanib, aynan Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar o'lkada o'zbek, qoraqalpoq, tojik, qirg'iz, qurama millatlaridan tashqari arablar, afg'onlar, yahudiylar, lo'lilar, hindlar, tatarlar, eroniylar va ko'plab boshqa millatlar ham hayot kechirgan. Keyinchalik Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida ko'plab migratsiya jarayonlari natijasida kelib

joylashgan uyg'urlar, dunganlar, Kavkaz xalqlari, imperiyaning Yevropa qismidan ko'chirilgan dehqonlar, tijorat, sanoat va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshqaruvda o'zlariga tegishli amaldorlarni joylashtirish maqsadida ko'chib kelgan rus fuqarolari, Yevropa yahudiylari va boshqa g'arbiy yevropaliklar, qolaversa, Turkiston o'lkasini bosib olishda qatnashib, iste'foga chiqqanidan keyin shu yerda doimiy yashab qolishga qaror qilgan sobiq harbiylar va amaldorlar Namangan uyezdi aholisining tarkibini to'ldirgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1876-yilda Namangan uyezdining aholisi 92 706 kishini tashkil qilgan. Ulardan o'zbeklar 68 628 kishi, tojiklar 7 580 kishi, qipchoqlar 3 852 kishi, qirg'izlar 1 216 kishi bo'lib, uyezd aholisining asosiy qismini tashkil etgan. Shuningdek, uyezdga kam sonli millatlar ham bo'lib, ular quramalar 822 kishi, qoraqalpoqlar 560 kishi, chuvashlar 224 kishi, dunganlar 243 kishi, turklar 160 kishi, yahudiylar 36 kishi, hindlar 12 kishi va boshqa millatlar 182 kishini tashkil qilgan. Uyezd aholisining asosiy qismi islom diniga sig'ingan bo'lib, ularning soni 92 653 kishini tashkil qilgan. Shu bilan birga, uyezdga 36 nafar yahudiy va 12 nafar boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi aholi ham mavjud edi [1, 15].

Namangan uyezdining markazi Namangan shahrida esa 1871-yilda 5 000 ta xonadon [11, 9], kamida 25 000 aholi mavjudligi manbalarda qayd etilgan [7]. Shu orqali bilish mumkinki, shahar aholisi o'rtacha hisobda 30 000 kishidan kam bo'lmagan. 1885-yilda Namanganda 31 803 kishi, 1897-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan o'tkazilgan umumiy aholini ro'yxatga olishda esa 62 017 kishi istiqomat qilganligi qayd etilgan [5, 310]. Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, shahar aholisi doimo ko'payib turgan. Chunki uyezd markazi bo'lgan shaharda sharoit va yashash tarzi qolgan hududlarga nisbatan yuqori bo'lgan.

Namangan uyezdi aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular paxta, bug'doy, kartoshka, dukkakli mahsulotlar, beda, jo'xori, arpa, sholi va boshqa mahsulotlar yetishtirgan. Qolaversa, uyezdga chorvachilik ham rivojlangan bo'lib, tuya, ot, mol, qo'y, echki va boshqa chorva hayvonlarini boqishgan. Shuningdek, Namangan uyezdi aholisi mehnatkash va o'lkada mashhur hunarmandlardan bo'lgan. Uyezdga har xil turdagi pichoqchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, do'ppichilik, degrezlik va boshqa hunarmandchilik turlari ayniqsa rivojlangan edi. Namangan shahri hunarmandlari asosan paxta va ipak tolasi yigirish, qog'oz tayyorlash, metall idishlar yasash, kulolchilik, zargarlik, temirchilik, tunukasozlik, chilangarlik, kosibchilik, duradgorlik, atlas to'qish hamda pichoqchilik kabi hunarlari bilan mashhur edi [10, 11].

Namangan shahrida 1884-yili kosibchilik, tikuvchilik, kumushchilik va shunga o'xshash hunarmandchilik sohalarida 3 516 nafar hunarmand va 2 153 nafar ularning shogirdlari faoliyat yuritgan [4, 417]. Chust shahri esa o'zining pichoq va egar ishlab chiqarishi bilan qolgan shaharlardan ko'ra ustun turgan [9, 19]. Shu bilan birga, uyezd aholisi pillachilik, asalarichilik va savdo-sotiq bilan ham shug'ullangan. Shundan anglash mumkinki, Namangan uyezdi qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligi ko'p tarmoqli bo'lib, uning aholisi turli sohalarida ilg'or bo'lgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Namangan uyezdi aholisi doimo o'zgarib turgan. 1883-yildagi aholi soni uyezd shakllangan yildagi holatdan qariyb olti mingga kamaygan. Natijada Namangan shahri aholisi 31 808 ta, uyezd hududlaridagi aholi soni esa 54 936 ta, umumiy hisobda Namangan uyezdida 86 744 kishi istiqomat qilgan. Joriy yilda ham aholining asosini o'zbeklar tashkil qilib, 63 687 tani tashkil qilgan. Shuningdek, uyezdga ko'p sonli millatlardan tojiklar 3 960 kishi, qipchoqlar 1 820 kishi, qirg'izlar 14 270 kishi, turklar 1 479 kishini tashkil etgan. Shu bilan birga, qurama, qoraqalpoqlar, qorateginlar, yahudiylar, hindlar, dunganlar, afg'onlar kabi millat vakillari ham istiqomat qilib, ularning umumiy soni ming kishidan ortiq bo'lgan. Ana shu hisobotlarga ko'ra, ulardan asosiy qismi musulmon bo'lib, 86 480 kishi islom diniga sig'ingan. Shu qatorda, oldingi yillardan farqli o'laroq, islom va yahudiy dini bilan birga yana katoliklar, pravoslavlar, lyuteranlar va butga sig'inuvchi kishilar ham paydo bo'ladi [3, 217–219]. Bunga rus amaldorlarining ko'chib kelishini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

1884-yilga kelib Namangan uyezdi aholisining umumiy soni 92 266 kishini tashkil etadi. Ulardan 49 995 tasi erkak va 42 271 tasi ayollar edi. Uyezd aholisi umumiy hisobda 13 883 ta xonadonda, ko'chmanchi aholi esa 5 022 ta o'tovda istiqomat qilgan. Demografik ma'lumotlarga ko'ra, Namangan uyezdida o'sha yili umumiy 1 493 ta tug'ilish va 1 904 ta o'lim holati kuzatilgan [9, 421–423]. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, uyezd aholisi soni goh kamayib, goh ko'payib turgan. Bunga imperiya mustamlakachi hukumatining aholi istaklari hisobga olinmasdan, doimo uyezdga ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar olib borganligi sabab bo'lgan.

Namangan uyezdi aholisi ijtimoiy holatiga ko'ra dvoryanlar, merosiy dvoryanlar, ruhoniylar, savdogarlar, nafaqadagi kichik amaldorlar va zahiradagi amaldorlardan iborat bo'lib, ularning barchasi

Namangan shahrida istiqomat qilgan. Ushbu tabaqa vakillari uchun shahardan alohida qism ajratilib, “Yangi shahar” yaratiladi va shahar eski hamda yangi shaharga bo‘linadi. “Yangi shahar”da 1877-yilda jami 34 ta xonadon mavjud edi. Eski va yangi shahar chegarasida ikki qavatli, yevropacha usuldagi uylar qad ko‘taradi. “Yangi shahar”da rus aholisi uchun kutubxona [6, 43], o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida ikki sinfli bilim yurti barpo etiladi [2, 171]. Mustamlakachi hukumat shu orqali aholini ijtimoiy tabaqasiga ko‘ra ajratib muomala qilgan. Bu, tabiiyki, ijtimoiy adolatning buzilishiga va ular orasida nizolar chiqishiga sabab bo‘lgan.

Shuningdek, uyezdga mahalliy aholi vakillari ham bo‘lib, ular uyezd aholisining asosini tashkil etgan. 1884-yilgi hisobotga ko‘ra, Namangan shahrida 30 ming atrofida mahalliy aholi vakillari mavjud bo‘lib, ular eski shahar qismida istiqomat qilgan, qolganlari esa uyezd hududlarida yashagan [4, 422]. Joriy yilda ularning o‘rtacha maoshlari fabrika va zavodlarda yillik 72 rubl, kunlik 20 kopeykani tashkil etgan, ustaxonalarda esa yillik maosh 40 rublga, kunlik maosh 15 kopeykaga to‘g‘ri kelgan. Erkak yollanma xizmatkorlar yiliga 120 rubl va kuniga 10 kopeyka, ayol xizmatkorlar esa yiliga 60 rubl va kuniga 5 kopeyka ishlab topgan [4, 419]. Bu ko‘rsatkichlardan ularning rus va mahalliy mayda amaldorlarga nisbatan ancha kam daromad qilganini ko‘rish mumkin. Chunki birgina volost rahbari ham yiliga ming rubl maosh olib, oddiy xalqdan 10–15 barobar ko‘proq daromad qilgan. Tabiiyki, bu holat oddiy xalqning ijtimoiy kayfiyatiga ta’sir o‘tkazmay qolmagan.

Imperiya hukumati mustamlaka boshqaruv tizimini joriy etish bilan birga o‘z soliq tizimlarini ham o‘rnatgan. Namangan uyezdi aholisi ko‘chmanchi yoki o‘troq ekanligiga hamda yashash joyiga qarab soliqlarni turlicha to‘lab kelgan. Imperiya hukumatining asosiy yig‘imi oklad solig‘i bo‘lib, u o‘troq aholidan yerlarning yalpi daromadining 10 foizi miqdorida, ko‘chmanchi aholidan esa kubitka solig‘i sifatida har bir o‘tov yoki uni almashtiruvchi turar joy (uy, saklya, yer to‘la va boshqalar) uchun 4 rubl miqdorida undirilgan.

Keyingi soliq yig‘imi okladsiz (qo‘shimcha) to‘lovlar ko‘rinishida tushgan. Bular davlatga qarashli ijaraviy obyektlardan olinadigan daromadlar uchun ijara haqi, o‘tloq va haydaladigan yer maydonlari ijarasidan tushadigan mablag‘lar, yerga aloqador bo‘lmagan davlat mulklari: bog‘, hovli, tegirmon, do‘kon, parom kechuvlari, g‘isht zavodlari, botqoq va qamishzorlar ijarasidan olinadigan to‘lovlardan iborat bo‘lgan. Qolaversa, faqat yog‘ingarchilikka bog‘liq bo‘lgan lalmikor (qayraq/laylmi) yerlardan olinadigan maxsus soliq ham okladsiz soliq yig‘imlariga kirgan bo‘lib, mazkur soliqlar har yili ekin maydonlari va hosil hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida tuziladigan hisob-kitoblar bo‘yicha belgilangan.

Uchinchi soliq turi zemstvo (mahalliy) pul yig‘imlari bo‘lib, uylar, kubitkalar va yerlar hisobidan undirilgan. Ular davlat oklad solig‘ining hisoblangan miqdorining 35 foizi hamda lalmikor yerlar bo‘yicha hisoblangan yer solig‘ining taxminan 10 foizi miqdorida belgilangan. Shuningdek, sanoat korxonlari, savdo va hunarmandchilik guvohnomalaridan olinadigan to‘lovlar, sud va ma’muriy organlar (mirovoy sudyalari, xalq sudlari, uyezd boshliqlari va uchastka pristavlari) tomonidan solinadigan jarimalar, sud bojlari, mahalliy aholiga tibbiy muassasalarda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar ushbu yig‘imlar tarkibiga kirgan.

Yana bir yig‘im shahar yig‘imlari edi. Ushbu yig‘imlar Farg‘ona viloyati shaharlarida joylashgan ko‘chmas mulklardan olinadigan soliq shaklida, shuningdek, shahar tarozilari, savdo hujjatlari uchun yig‘imlar, aravakashlik faoliyatidan olinadigan to‘lovlar, shahar mulklarining ijarasidan olinadigan daromadlar va boshqa tushumlar shaklida undirilgan.

Shuningdek, aksiz yig‘imlari, bojxona bojlari va jamoat yig‘imlari (pul shaklida hamda natural — mehnat yoki mahsulot bilan — majburiyatlar tarzida bajarilgan) mavjud edi [9, 27–28].

1890-yilda Namangan uyezdi o‘troq aholisidan olinadigan 35 foizlik obrok solig‘i 56 758 rublni tashkil etgan. Obrok solig‘i — o‘troq aholidan yerdan foydalanish, hunarmandchilik va savdo faoliyatini amalga oshirish uchun davlat foydasiga pul yoki mahsulot shaklida undirilgan soliq turi. 35 foizlik shahar yerlaridan (asosan, hovli yerlari) undirilgan yig‘im summasi esa 8 042 rublni tashkil qilgan. Shuningdek, vaqf daromadlaridan ham 35 foizli yig‘im undirilgan. Namangan uyezdida vaqf daromadlari hisobidan 165 rubl soliq undirilgan [8, 59]. Ko‘chmanchi aholiga solinadigan kubitka solig‘i 1890–1892-yillar uchun uch yillik davrda Namangan uyezdi bo‘yicha 15 464 rubl etib belgilangan [9, 29].

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Namangan uyezdi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati ta’sirida muhim demografik, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Aholi tarkibi migratsiya jarayonlari hisobiga yanada ko‘pmillatli tus oldi, biroq o‘zbeklar asosiy aholi qatlamini tashkil etishda davom etdi. Uyezd iqtisodiyotida dehqonchilik, chorvachilik va

hunarmandchilik yetakchi o‘rin egallab, Namangan va Chust shaharlari hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlandi. Shu bilan birga, mustamlakachilik boshqaruvi natijasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish kuchayib, rus amaldorlari va mahalliy aholi o‘rtasida iqtisodiy tengsizlik yuzaga keldi. Imperiya tomonidan joriy etilgan soliq tizimi mahalliy aholi zimmasidagi moliyaviy yukni oshirdi hamda hududni Rossiya iqtisodiy manfaatlariga bo‘ysundirishga xizmat qildi. Natijada Namangan uyezdi mustamlakachilik davrida iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, ijtimoiy tengsizlik va aholi turmushidagi murakkabliklar ham kuchaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zMA, F. I-19, ro‘yxat-1, 3-yig‘ma jild.
2. O‘zMA, F. 329, ro‘yxat-7, 94-yig‘ma jild.
3. O‘zMA, F. I-19, ro‘yxat-1, 1170-yig‘ma jild.
4. O‘zMA, F. I-19, ro‘yxat-1, 1458-yig‘ma jild.
5. O‘zMA, 19-fond, 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 297–298, 310-varaqlar; Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года (Губернские итоги). Т.Т. 1–89. – СПб., 1903–1905; Приложение – № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год / В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. – СПб., 1914.
6. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган, 1995. – Б. 43.
7. Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения) // Туркестанские ведомости. – 1885. – № 38.
8. Обзор Ферганской области за 1890 год. – С. 59.
9. Обзор Ферганской области за 1891 год. – С. 19.
10. Обзор Ферганской области за 1892 г. – Новый Маргелан, 1895. – С. 11.
11. Туркестанские ведомости. – 1871 год, 16 август. – № 29.